

DAMINOV Baxromjon Zakirdjanovich
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrası
katta o'qituvchisi

RAXIMOVA Dildora Alloqul qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili)
yo'nalishi talabasi

ARAB TILIDA TOVUSHLARINING ARTIKULYATSION TAVSIFI

АРТИКУЛЯЦИОННАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЗВУКОВ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

ARTICULATION DESCRIPTION OF SOUNDS IN ARABIC

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab nutqi tovushlarining artikulyatsion xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda tovushlarning hosil bo'lish jarayonida nutq a'zolarining ishtiroki, tovushlarning hosil bo'lish o'rinlari (maxorij al-huruf) hamda ularning tasnifi yoritib beriladi. Shuningdek, arab tiliga xos bo'lgan halqumiy, til orqa va emfatik tovushlarning artikulyatsion jihatdan o'ziga xos tomonlari ochib beriladi. Ushbu maqola arab tilini o'rganuvchilar uchun to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Arab tili, fonetika, artikulyatsiya, mahraj, nutq a'zolari, talaffuz me'yorlari fonetika, nutq a'zolari.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ артикуляционных особенностей звуков арабской речи. В ней освещается участие органов речи в процессе образования звуков, места их образования (махаридж аль-хуруф), а также их классификация. Кроме того, раскрываются специфические артикуляционные особенности, присущие арабскому языку, такие как гортанные, заднеязычные и эмфатические звуки. Данная статья служит важной теоретической основой для формирования навыков правильного произношения у изучающих арабский язык.

Ключевые слова: арабский язык, фонетика, артикуляция, махрадж, органы речи, нормы произношения.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the articulatory features of Arabic speech sounds. It examines the role of speech organs in the production of sounds, the places of articulation (makhārij

al-hurūf), and their classification. Additionally, the study highlights the specific articulatory characteristics of Arabic, such as pharyngeal, velar, and emphatic sounds. This article serves as an important theoretical foundation for developing correct pronunciation skills among learners of the Arabic language.

Keywords: Arabic language, phonetics, articulation, makhraj, speech organs, pronunciation norms.

KIRISH

Jahon tillaridan biri deb e'tirof etilgan arab tili insoniyat tarqqiyoti tarixida g'oyat muhim o'rin egallagan. Ilohiy mo'jiza bo'lmish Qur'oni karimning arab tilida nozil bo'lishi va payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning o'z sunnatlarini shu tilda bayon qilganlari arab tilining "ikki dunyo saodatiga eltuvchi til" deb e'tirof etilishiga sabab bo'ldi. Islom dini sharofati ila arab tili Atlantik okeandan qarib Tinch okeangacha cho'zilgan. Butun islom ummati uchun muqaddas bo'lgan til hisoblanadi. Yagin o'tmishgacha musulmon mamlakatlarida arab tilini bilmaydigan kishi ziyoli sanalmas edi [1;3].

Arab tilining fonetik tizimi o'ziga xos murakkablikka ega bo'lib, undagi nutq tovushlari artikulyatsion va akustik jihatdan alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Arab tilidagi ayrim tovushlar (masalan, halqumiy va emfatik tovushlar) o'zbek tilida mavjud emasligi sababli, ularni to'g'ri talaffuz qilish o'rganuvchilar uchun muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa arab nutq tovushlarining artikulyatsion (tovush hosil qilish jarayoni) hamda akustik (tovushning fizik xususiyatlari) jihatdan ilmiy asosda tahlil qilinishini talab etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, arab tilini o'rganishda fonetik xatoliklarni kamaytirish, to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish hamda nutq madaniyatini rivojlantirish bevosita tovushlarning artikulyatsion xususiyatlarini puxta o'zlashtirish bilan bog'liqdir.

ASOSIY QISM

Arab tilida 28 ta harf bor, ba'zi manbalarda 29 ta ham deyiladi. Chunki, (◌) hamza belgisi alifbo tarkibiga kirgizilishiga ko'ra farqlanadi. Ularning barchasi undoshlar bo'lib, unlilar harakatlar bilan ifodalaniladi. Arab alifbosida "bosh harf", "kichik harf" degan tushunchalar yo'q. Bu jihatdan hamma harflar bir xil. Arab harflari raqamlar o'rnida ham ishlatilgan. Har bir harf o'zining raqamiy "abjadiy"

qiymatiga ega [1;12] Arab harflarining yana bir ajoyib jihati shundaki, har bir harfning o'z mahraji va sifatiga egaligidir.

“**Maxraj**” arab tilidan olingan bo‘lib, “chiqish joyi, chiqish” degan ma’nolarni anglatadi. Istelohda esa harflar chiqadigan joyga mahraj deyiladi.

Ibn Jazariy maxrajlar soni haqida quyidagi baytida so‘z yuritadi:

٩ - مَخَارِجُ الْحُرُوفِ سَبْعَةٌ عَشْرٌ - عَلَى الَّذِي يَخْتَارُهُ مَنْ اخْتَارَ [8;1]

O‘n yettidir – harflarning chiqish yo‘li,

Sinab ko‘rib tanlagan kishining yo‘li

Shunday qilib, arab harflarining maxrajlar 17 ta bo‘lib, ulardan 29 ta harf chiqadi. Maxraj a‘zolari 5 ta. Ular:

- 1) Javf – الجوف – Og‘iz bo‘shlig‘i. Unda bitta maxraj bor.
- 2) Halqum – الحلق – Tomoq. Unda uchta maxraj bor.
- 3) Lisaan – اللسان – Til. Unda o‘nta maxraj bor.
- 4) Shafataan – الشفتان – Ikki lab. Unda ikkita maxraj bor.
- 5) Xayshum – الخيشوم – Dimog‘. Unda bitta maxraj bor [2;32]

Og‘iz bo‘shlig‘i

(javf)

Og‘iz bo‘shlig‘i deb, ovoz paychalari joylashgan yer (kekirdak bo‘rtib turadigan joy) dan og‘iz uchi (lab) gacha bo‘lgan og‘iz ichidagi bo‘shliqqa aytiladi.

Ibn Jazariy birinchi maxrajni quyidagi bayt bilan zikr qiladi:

10 - لِلْجَوْفِ: أَلِفٌ وَأَخْتَاهَا وَهِيَ حُرُوفٌ مَدٌّ لِلْهَوَاءِ تَنْتَهِي [8;1]

10 — Javfda alif va ikki opa-singil bo‘lar,

Mad harfi bo‘lib, havo bilan yo‘qolar.


Demak, og‘iz bo‘shlig‘ida bitta maxraj bo‘lib, undan uchta mad و ي ا harflari chiqadi. Bu harflarini mad harflariga aylanish sharti, alif o‘zidan avvalgi harf fathali bo‘lganida, vaav o‘zidan avvalgi harf dommal bo‘lganida, yaa o‘zidan avvalgi harf kasrali bo‘lganida mad harflariga aylanadi. Agar avvalgi harfning harakati o‘ziga mos bo‘lmasa, va ikki labdan ي esa til o‘rtasidan chiqadi. Ushbu harflar og‘iz bo‘shlig‘idan chiqqani uchun Javf harflari, halqumning past qismidan boshlab og‘izning uchigacha davom etib, og‘iz ichida biror nuqtaga tegmasdan, to‘silmasdan og‘izdan chiqib ketgani uchun Mad harflari, og‘izdan havo bilan chiqqani uchun Havo harflari deb nomlangan.



مخرج الألف



مخرج الياء المدية



مخرج الواو المدية

Halqum

(tomoq)

Halqum deb, ovoz paychalari joylashgan yer (kekirdak bo‘rtib turadigan joy) dan kichik til (halqum yuqorisi) gacha bo‘lgan joyga aytiladi.

Ibn Jazariy halqum harflarining maxrajlarini quyidagi baytlar bilan bayon qiladi:

11- ثُمَّ لِأَقْصَى الْخَلْقِ هَمَزٌ هَاءٌ ثُمَّ لَوْسَطِهِ فَعَيْنٌ حَاءٌ

12 - أَذْنَاهُ عَيْنٌ خَاوَاهُ, [8;2]

Halqumning eng pastida— hamza, ha

So‘ng uning o‘rtasidan— ayn, ha


Eng quyi qismidan esa — g‘ayn, xo

..... Sharhi: Halqumda uchta maxraj bor:

1. Halqumning tubi. Bu ko‘rakdan keyin keladigan ovoz paychalari joylashgan yer bo‘lib, undan ikkita ه va ع harflari chiqadi.

2. Halqumning o‘rtasi. Undan ikkita ح va غ harflari chiqadi.


3. Halqumning yuqorisi. Bu kichik til joylashgan yer bo‘lib, undan ham ikkita خ va غ harflari chiqadi [2;41]



مخرج الهمزة والهاء



مخرج العين والحاء



مخرج الغين والحاء

Bu harflar halqumdan chiqqanligi uchun halqum harflari, halq harflari va izhor harflari deb ataladi.

Til

(lisaan)

Tilda o‘nta maxraj bo‘lib, bu o‘nta maxrajdan o‘n sakkizta harf chiqadi. Ular bilan tanishishdan avval, shuni yaxshi bilib olishimiz kerakki, tilning yolg‘iz o‘zidan biror harf chiqmaydi. Balki, tilda ba‘zi nuqtalar bo‘lib, ushbu nuqtalar og‘iz ichidagi ba‘zi joylarga tegib, so‘ng harflar nutq bo‘ladi.

Ibn Jazariy quyidagi baytlarida shunday deydi:

12- أَقْصَى اللِّسَانِ فَوْقَ، ثُمَّ وَالْقَافِ [8;2]


الْكَافِ

13 - أَسْفَلَ [8;2]


Tilning eng oxiridan-ku, qof ovoz solar.

Sal pastroqdan aysang kaf bo'lib qolar.

Sharhi: tildagi birinchi maxraj va undan chiqadigan birinchi harf ق harfi bo'lib, u tilning tubi o'zining to'g'risidagi tepa yumshoq tanglayga tekkanda chiqadi. Tildagi ikkinchi maxraj va undan chiqadigan ikkinchi harf ك harfi bo'lib, u tilning tubidan sal yuqorisi, o'zining to'g'risidagi tepa yumshoq tanglayga tekkanda chiqadi.



مخرج الكاف



مخرج القاف

So'ng muallif tilning o'rta qismi va yon tomonlari harflari maxrajlarini bayon qilib, shunday deydi:

13 - وَالْوَسْطُ فَجِيمُ الشَّيْنِ يَا وَالضَّادُ مِنْ حَاقِيهِ إِذْ وَلِيَا

14 - لِأَضْرَاسٍ مِنْ أَيْسَرِ أَوْ يَمَنَاهَا وَاللَّامُ أَذْنَاهَا لِمُنْتَهَاهَا

[8:2]


Tilning o'rtasidan jim, shin, ya ovoz solar.

Adrosning eng quyisidan lam chiqib qolar.


Yonidan esa dod chiqib hayolni sekin olar,

Chap yo o'ng adroslarga tegib ketsa agar.


Sharhi: tildagi uchinchi maxraj va undan chiqadigan uchinchi, to'rtinchi va beshinchi harflar ج harflari bo'lib, ular tilning o'rtasi o'zining to'g'risidagi qattiq tanglayga tekkanda chiqadi.



مخرج الشين




مخرج الجيم




مخرج الباء غير المدية

Sharh: tildagi to'rtinchi maxraj va undan chiqadigan oltinchi harf ل harfi bo'lib, u yo'g'on holatda tilning oldi, ingichka holatda esa tilning uchi yuqori sanaaya tishlarining milkiga tekkanda chiqadi. Tildagi beshinchi maxraj va undan chiqadigan yettinchi harf ض harfi bo'lib, u tilning o'ng yoki chap yonini yoki har ikki yonini barobariga tepa adros tishlarining ichki tomoniga urganda chiqadi.



مخرج الضاد



مخرج اللام

Quyida lam va dod harflari maxrajining tasviri keltiriladi:


Shundan so'ng muallif nun va ro harflarining maxrajlarini bayon qilib, shunday deydi:

15 - وَالنُّونُ مِنْ طَرَفِهِ تَحْتَ أَجْعَلُوا وَالرَّا يُدَانِيهِ لَظْفَرٍ أُدْخِلَ [8:2]


Lamning pastrog'idan nunni qilgin.

Nunga juda yaqin ro ekanin bilgin.

Sharhi: tildagi oltinchi maxraj va undan chiqadigan sakkizinchi harf ن harfi bo'lib, u tilning oldi ل harfi chiqadigan joydan sal teparog'iga tekkanda chiqadi. Tildagi yettinchi maxraj va undan chiqadigan to'qqizinchi harf ر harfi bo'lib, u yo'g'on holatda tilning o'rtasini cho'ktirib, ko'tarilgan ikki chetini yuqori tanglayga tekkizganda, ingichka holatda esa, tilning oldini o'zining to'g'risidagi oldi tanglayga tekkizganda chiqadi.



مخرج الرءاء



مخرج النون

So'ng muallif til uchidan chiqadigan harflarning qolgan maxrajlarini zikr qilib, shunday deydi:

16 - وَالطَّاءُ وَالذَّالُّ وَتَا مِنْهُ وَمِنْ عُلْيَا النَّيَا، وَالصَّفِيرُ مُسْتَكِينٌ

17 - مِنْهُ وَمِنْ فَوْقِ النَّيَا السُّفْلَى وَالطَّاءُ وَالذَّالُّ وَتَا لِّلْعُلْيَا

18 - مِنْ طَرَفَيْهِمَا ، [8:2]

To, dal va ta til uchidan chiqib ketadi.

Yuqori sanaya tishiga shart borib yetadi.


Sofir tovushlari joyida bo'lib barqaror

Pastki sanaya tishida maxrajlar bor.


Til uchida zo, zal va sani aytib ko'r.

Sharhi: tildagi sakkizinchi maxraj va undan chiqadigan o'ninchi, o'n birinchi va o'n ikkinchi harflar د harflari bo'lib, ular tilning oldi yuqori sanaaya tishlari bilan milk ulangan joyga tekkanda chiqadi. Tildagi to'qqizinchi maxraj va undan chiqadigan o'n uchinchi, o'n to'rtinchi va o'n beshinchi harflar ز harflari bo'lib, ulardan harflari tilning uchi pastki sanaaya tishlarining orqasiga, ص harfi esa, pastki sanaaya tishlarining tubiga tekkanda chiqadi. Tildagi o'ninchi maxraj


va undan chiqadigan o'n oltinchi, o'n yettinchi hamda o'n sakkizinchi harflar ظ ث ظ harflari bo'lib, ular tilning uchi tepa sanaaya tishlarining uchiga tekkanda chiqadi.



مخرج الدال والطاء والظاء



مخرج السين والصاد والزاي



مخرج الدال والطاء والظاء


Ikki lab (shafataan)

So'ngra Ibn al-Jazariy lab harflari va xayshum (burun bo'shlig'i) maxrajlari haqida so'z yuritib, shunday deydi:

١٨ وَمِنْ بَطْنِ الشَّفَةِ قَالًا مَعَ اطْرَافِ التَّنَائِيَا
المُشْرِفَةِ
١٩ - لِلشَّفَتَيْنِ الْوَأُو بَاءٌ مِيمٌ وَغَنَّةٌ مَخْرَجُهَا الْخَيْشُومُ
[٨:٢]

Sanaya tishi lab ichiga tekkan dam
Fa harfin qancha chiqarsang kam
Ikki labdan vov, ba hamda mim
Xayshumdan chiqadi g'unna ham.


Sharhi: labda ikkita maxraj bor: labdagi birinchi maxraj va undan chiqadigan birinchi harf ف harfi bo'lib, u tepa sanaaya va ruba'iyya tishlarining uchini pastki labning ichki yumshoq joyiga ohista tekkizilganda chiqadi. Labdagi ikkinchi maxraj va undan chiqadigan ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi harflar م و ب harflari bo'lib, ulardan م va ب harflari ikki lab bir-biriga tegib yumilganda و harfi esa, ikki lab cho'chchayganda chiqadi.



مخرج الباء



مخرج الواو غير المدية




مخرج الميم




مخرج الفاء

Dimog' (xayshum)



مخرج الغنة مع الميم



مخرج الغنة مع النون

Dimog' da bitta maxraj bo'lib, undan g'unna (yoqimli jarangli tovush) chiqadi. G'unna tovushi

tashdidli nuun ن va tashdidli miim م harflarini talaffuz qilganda paydo bo'ladi. G'unnaning paydo bo'lish jarayoni quydagicha bo'ladi: Tashdidli nuun va tashdidli miim harflari talaffuz qilingan vaqtda, ichkaridan chiqayotgan nafasning yo'li to'silib, og'izdan chiqib keta olmaydi. So'ng nafas orqaga qaytib, tanglaydagi ikkita teshikdan dimog'ga o'tib g'unna aylanadi va burun orqali chiqib ketadi. G'unna tovushini cho'zilish miqdori ikki harakatdan ko'p va kam bo'lmasligi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, arab nutqi tovushlarining artikulyatsion tavsifi ularning hosil bo'lish jarayoni va nutq a'zolarining ishtirokini chuqur o'rganishni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi tovushlar tizimi o'zining murakkabligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, halqumiy, til orqa hamda emfatik tovushlarning mavjudligi bu tilni boshqa tillardan farqlaydi va ularni to'g'ri talaffuz qilish maxsus mashq va bilimni talab etadi.

Shuningdek, arab nutqi tovushlarining artikulyatsion jihatdan tahlili ularni o'qitishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda nutq a'zolarining faoliyati va tovushlarning hosil bo'lish o'rinlarini aniq bilish zarur. Bu esa o'z navbatida, arab tilini o'rganayotgan talabalar nutqida fonetik xatolarni kamaytirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdujabborov A. Arab tili. -T.: Toshkent islom universiteti, 2015. -307 b.
2. Doktor Ayman Rushdiy Suvayd. Suratli tajvid.- Toshkent: Hilol nashr, 2021. -263 b.
3. Hasanov M. Arab tili.-T.: Global Books, 2019. -359 b.
4. الأستاذ الدكتور غانم قروري الحمد. الشرح الوجيز على المقدمة الجزرية/الطبعة الأولى. -الجدّة: مركز الدراسات والمعلومات القرآنية بمعهد الإمام الشاطبي، ١٤٣٠ هـ. الصحيفة -١٦٤
5. إمام المقرئ أبو الكرم المبارك بن الحسن الشهرزوري. المصباح الزاهر في القراءات العشر البواهر - الرياض: دار الكتب العلمية للنشر والتوزيع، ١٤٣٥ هـ. ص- 2828
6. طاش كبري زاده. شرح المقدمة الجزرية.-المدينة المنورة: ٢٠٠١م. الصحيفة-٣٧٩
7. فوزي الشايب محاضرات في اللسانيات ص ١٧٢ و ١٩٣ و ٢٠٢
8. محمد بن محمد بن علي بن يوسف ابن الجزري. منظومة المقدمة/ الطبعة الرابعة. -جدّة: دار نور المكتوبات، ١٤٢٧ هـ. ص- ٢٢